

RESPUBLIKA IQTISODIYOTINI BOZOR IQTISODIYOTI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI KUCHLI IJTIMOYIY HIMOYALASHNI TA'MINLASH

Asqarova Feruza Imyaminjonovna

Farg'ona davlat universiteti iqtisod yo'nalishi sirtqi bo'limi talabasi.

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot organlarining amaldagi tuzilmasi, ularning ishini tashkil qilish prinsip va usullari iqtisodiyotni boshqarishning zamonaviy talablariga, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlaridagi tuzilmaviy o'zgartirishlarga javob bermaydi.

Xususan, iqtisodiyotning o'zgarishi sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asoslangan maqsadli yo'nalishlarini (indikatorlarini) shakllantirish, shuningdek, mavjud ichki va tashqi omillarni hamda islohotlarning strategik ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini aniqlash tizimi mavjud emas. Iqtisodiyotning hududiy va tarmoq taraqqiyoti, shu jumladan, urbanizatsiya salohiyatini amalga oshirish orqali mutanosiblikni ta'minlash uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish tizimi kerakli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Bozor tamoyillarini keng joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, bozorni raqobatbardosh tovarlar bilan to'ldirish va ularni tashqi bozorlarga yo'naltirish hajmlarini oshirish bo'yicha zarur tadbirlar ishlab chiqilmayapti.

Natijada, barqaror ishchi o'rinlari yaratish darajasi pastligicha saqlanib qolayotganligi aholini, ayniqsa, qishloq aholisini barqaror daromad manbai bilan ta'minlash imkonini bermaydi va sifatli inson kapitalini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 7 fevraldagi – O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha – Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da - xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri xizmatlar sohasiga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ular yordamida yangi ish joylarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etishdir.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: - Xizmatlar sohasida faoliyat yuritidshga ixtisoslashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda qanchalik o'ta muxim rol o'ynashini albatta chuqur anglashimiz zarur.

Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa sohalari singari xizmatlar sohasini ham ustuvor darajada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu sababli mamlakatimizda islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasini mamlakatimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mazkur tarmoqni rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni ta'kidlash joiz, xususan, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy byudjetlarni to'ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko'rsatish imkoniyatlaridan kam foydalanilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa, qishloq joylarida sust rivojlanmoqda, bu yerda katta kapital mablag' talab qilmaydigan va xususiy tadbirkorlik uchun jozibador bo'lgan ko'pgina an'anaviy xizmat turlari yetarli darajada rivojlanmayapti va qishloq aholisining ulardan foydalanish imkoniyatlari pastligicha qolmoqda. Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida band bo'lganlar sonini ko'paytirish va shu asosda aholi daromadlarini oshirish hamda ichki iste'mol bozorini zamonaviy, sifatli turli-tuman xizmat turlari bilan to'ldirish bilan bog'liq muammolarni mavjudligi va mazkur holatlar tanlangan mavzuni hozirgi sharoitda dolzarbligi va muhimligini ko'rsatib bermoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi kelajakda asosiy sektorlardan biriga aylanishini hamda bozor munosabatlarini takomillashtirishda, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, uning natijasida mamlakat budjeti barqarorligini ta'minlash, yalpi ichki mahsulotni (YaIM) ishlab chiqarish, aholi bandligini ta'minlash kabi dolzarb muammolarni hal qilinishini inobatga olib, ularning bugungi kunda tutgan o'rnini tadqiq qilish, kelgusidagi rivojlanish istiqbolini nazariy va amaliy jihatdan asoslash dolzarb hisoblanadi.

Bugungi global iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston o'zining aniq maqsadlarini belgilab olganligi, ya'ni ochiq bozor munosabatlariga asoslanib iqtisodiy faoliyat yuritayotgani hech kimga sir emas. Yangi bozor munosabatlariga o'tish jarayoni mamlakatimizning o'ziga xos urf-odatlarini, shart-sharoitlarini, xalqning an'analari va milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda ro'y bermoqda. Bunda jahon amaliyotida to'plangan va iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar orttirgan ijobiy tajribalar ham hisobga olinmoqda, jumladan, xizmatlar sohasining bu jarayondagi o'zni ahamiyatga molik hisoblanadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohatlarning pirovard maqsadlari, bu eng avvalo, inson uchun munosib turmush va mehnat sharoitlarini yaratishdir. Bu esa, o'z navbatida, xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Turli xildagi xizmatlarga bo'lgan talabning oshishini bir qator omillarning ta'siri bilan izohlash mumkin. Farovonlikning oshib borishi natijasida iste'molchilarning muntazam amalga oshiriladigan, masalan, yig'ishtirish, tozalash, ovqat tayyorlash va h.k. kabi ishlarini yengillashtirishga bo'lgan istaklari qulay xizmatlar sanoatining rivojlanishiga olib keldi.

Daromadlarning oshishi va qo'shimcha bo'sh vaqtning paydo bo'lishi dam olish va sport bilan shug'ullanish kabi bir qator xizmatlarga bo'lgan talabni oshirdi.

Uy sharoitida yuqori texnologik mahsulotlardan (shaxsiy kompyuterlar, multimediyali audio va video uskunalari, xavfsizlik tizimlari) foydalanishning o'sishi ularni o'rnatuvchi va texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni oshirdi.

Bozor xizmatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bozorlar va texnologiyalarning takomillashtirilishi kompaniyalarning bozor tadqiqotlari, marketing ishlanmalari va texnik maslahatlar bilan shug'ullanuvchi korxonalariga bo'lgan ehtiyojlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, doimiy xarajatlarni qisqartirish zaruriyati kompaniyaga maxsus xizmatlarni mustaqil bajarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar qilgandan ko'ra tayyor xizmatni sotib olishga majbur qiladi. Kompaniyalar bajonidil xizmatlarni sotib olishadi, chunki bu o'zlarining ishlab chiqarishiga qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini oldini oladi va shu bilan moslashuvchanlikni saqlaydi.

Va nihoyat, ko'plab kompaniyalar o'z faoliyatlarini yuqori darajada ixtisoslashgan sohalarda jamlashga harakat qiladi. Ular yordamchi faoliyat turlaridan xususan, saqlash va tashishdan voz kechishadi, shu tariqa xizmatlar sohasining kengayishini rag'batlantiradi. Bularning barchasi, o'z navbatida, xizmatlar sohasining o'sishi va respublika iqtisodiyotini bozor iqtisodiyoti asosida rivojlantirish va aholini kuchli ijtimoiy himoyalashni ta'minlashga olib keladi.

Hozirgi kunda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari asosan aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasida o'z o'rnini topayotgani hech kimga sir emas. Xususan, turizm xizmatlari, aholiga yuqori saviyadagi transport xizmatlarini ko'rsatish (yo'lovchilarni tashish), uy-xo'jaliklarga zarur maishiy buyumlarni (mebellar, qurilish materiallari, iste'mol tovarlarini) yetkazib berish, kiyim-kechaklarni yuvish va ta'mirlash bo'yicha va shu kabi ko'plab xizmatlar ko'rsatilayotganini sanab o'tishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha - Harakatlar strategiyasi" Farmoni. 7 fevral 2017 yil.

2. Kotler P., Armstrong G., Marketing asoslari. 15-nashr. Darslik. —Pearson Education Limited|| nashriyoti. 2014 yil.
3. Marketing, Bozorshunoslik/ A.Soliyev, S.Buzrukxonov /T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010- y.
4. Г.Л.Багиев, В.М.Тарасевич Маркетинг. 4-изд.-СПб., “Питер” 2012 г.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.T.: O‘zbekiston, 2010.
6. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining aossiy mezonidir. –T.: O‘zbekiston, 2011.
7. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N., Muxiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. –T.: “O‘qituvchi”, 2003.
8. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari.-T.: Mehnat, 2000.
9. K.S. Xamdamov. Mikroiqtisod. -T.: TDIU, 2001.
10. E. Egamberdiev, X. Xo‘jaqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. T., Ma’naviyat, 2009.
11. Муталимов, Л. Н. Новикова. Микроэкономика. Издательство: БГЭУ. 2000. ISBN: 985-426-183-2.